

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

AL-OTAIBI BADER TARAXIB

RUS VA ARAB GAZETA DISKURSIDA SIYOSIY
FRAZELOGIZMLARNING TARJIMA EKVIVALENTLIGI
MUAMMOSI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UO‘K: 811.161.1 811.411.21:81’25:81’373
КБК: 81.2 – 3 (2 rus) (5 arab)
M-56

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Al-Otaibi Bader Taraxib

Rus va arab gazeta diskursida siyosiy frazeologizmlarning tarjima
ekvivalentligi muammosi 3

Аль-Отаиби Бадер Тарахиб

Проблема переводческой эквивалентности политических
фразеологизмов в русском и арабском газетном дискурсе..... 23

Al-Otaibi Bader Taraxhib

The problem of translation equivalence of political phraseologisms in
russian and arabic newspaper discourse..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok o‘publikovannix rabot
List of published works 49

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

AL-OTAIBI BADER TARAXIB

**RUS VA ARAB GAZETA DISKURSIDA SIYOSIY
FRAZELOGIZMLARNING TARJIMA EKVIVALENTLIGI
MUAMMOSI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tashgiv.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shomusarov Shorustam Giyazovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Islamdjanova Xazifaxan
filologiya fanlari doktori, professor

Rashidova Nargiza Baxtiyarovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli Ilmiy kengashning «_____»_____2024 yil soat_____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «_____»_____kuni tarqatildi.

(2023 yil «_____»_____dagi_____raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

R.A.Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash Ilmiy
kotibi, filol.f.d., dotsent

X.Z.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Siyosiy frazeologik birliklarning tarjima ekvivalentligi muammosini o'rganish genetik jihatdan har xil bo'lgan hind-evropa tillar oilasining slavyan guruhiga kiruvchi rus tili va xom-som tillar oilasining somiy guruhiga kiruvchi arab tilida bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Rus va arab gazeta diskursida siyosiy frazeologik birliklarni lingvomadaniy jihatdan qiyosiy o'rganish rus va arab tillaridagi frazeologik birliklarning semantikasi va tuzilishidagi umuminsoniy va milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash, milliy mentalitet va xalqlarning, shu tillarga ega bo'lganlarning dunyoqarashidagi o'ziga xos jihatlarini tavsiflash imkonini beradi, chunki gazeta diskursi resipienti (qabul qiluvchisi)ning muayyan bir madaniyatga tegishliligi uning milliy va madaniy xususiyatlarini belgilaydi.

Ma'lumki, dunyoning lisoniy manzarasi til prizmasi orqali inson dunyoqarashining o'ziga xos uslubidir, chunki har bir tabiiy til dunyoni idrok etish va tushunish (konseptualizatsiya)ning muayyan usulini aks ettiradi. Muayyan bir tilga xos bo'lgan voqelikni idrok etish va tushunish (konseptualizatsiya) usuli qisman universal, qisman milliy o'ziga xosdir, shuning uchun turli tillarda so'zlashuvchilar dunyoni turlicha, o'z tillari prizmasi orqali ko'ra oladilar. Shu sababli, siyosiy diskurs qabul qiluvchi (adresat)da ma'lum bir dunyoqarash, tasavvurni shakllantirishga qaratilgan. Bu masala, ayniqsa, madaniyatlararo muloqot sharoitida, xususan tarjima jarayonida, tarjima qilingan matnni tushunish uchun unga kiritilgan birliklarning ma'nosini tushunish yetarli bo'lmaganda, umuminsoniy va milliy xarakterga ega bo'lgan keng ko'lamli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bilimlarga ega bo'lish zarur.

Binobarin, inson dunyoni idrok etib, o'z dunyoqarashini shakllantiradi, ya'ni uning ongida dunyoning ma'lum bir manzarasi paydo bo'ladi. Dunyoning lisoniy manzarasini yaratishda esa frazeologik obraz muhim rol o'ynaydi. Rus va arab tillaridagi frazeologizmlar bu xalqlarga xos bo'lgan dunyoning lisoniy manzarasi, ularning obrazli fikrlash xususiyatini aks ettiradi va ular mazkur xalqlarning madaniyati, tarixi, urf-odatlar va an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu jihat milliy-madaniy axborotni uzatuvchi siyosiy frazeologik birliklarni, ularning rus va arab gazeta diskursidagi xususiyatlarini har tomonlama o'rganishning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2020 yil 16 apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi- ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunga kelib, rus va arab olimlari tomonidan gazeta siyosiy diskursi muammolari va siyosiy frazeologizmlarni qiyosiy nuqtai nazardan o‘rganishning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan bir qancha muhim tadqiqotlar amalga oshirildi.

So‘nggi yillarda gazeta diskursini o‘rganish masalasi F.A. Kuek, M.V. Lukanina, Ye.V. Pokrovskaya, I.I. Tokareva, T.V. Chernishova, O.F. Kostikova va boshqa tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda¹.

Diskurs turlarini tasniflash muammosining muayyan bir yechimini berishda V.I. Karasikning tadqiqoti katta ahamiyatga ega². Shuningdek, siyosiy diskurs xususiyatlarini tadqiq etishda Ye.V. Pereverzev va Ye.A. Kojemyakin kabi olimlar ham salmoqli hissa qo‘shishgan³.

Yu.N. Karaulov tomonidan taklif qilingan lisoniy shaxsiyat modeli gazeta diskursining eng to‘liq tahlilini amalga oshirish imkonini beradi⁴. Bundan tashqari, mazkur muammoning turlicha o‘rganilishiga oid G.Ya. Solganik, V.I. Karasik va boshqa qator tadqiqotchilarning ishlari ham e‘tiborga molik⁵.

A.A. Sadixova, M.I. Magomedov va P.M. Magomedova kabi olimlarning tadqiqotlari arab tilidagi siyosiy diskursni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan⁶.

Arab leksikologiyasi va tarjima nazariyasi bo‘yicha so‘nggi vaqtlarda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar orasida arab tili tarjimasining xususiy nazariyasi va texnologiyasi bo‘yicha birinchi fundamental asar muallifi – N.D. Finkelbergning tadqiqoti alohida

¹ Кук Ф. А. Языковые средства газетного дискурса: лексико-семантический и прагматический аспекты. 2005. Диссертации по гуманитарным наукам. <http://cheloveknauka.com/yazykovye-sredstva-gazetnogo-diskursa-leksiko-semanticheskij-i-pragmaticheskij-aspekt#ixzz6GgITgUNA>; Луканина М.В. Газетный текст через призму теории коммуникаций // Вестник Московского университета. Серия 19, 2003, № 2; Покровская Е.В. Понимание современного газетного текста и его языковые характеристики: Дисс. док. филол. наук. – Москва, 2004. – 277 с. <https://www.dissercat.com/content/ponimanie-sovremennogo-gazetnogo-teksta-i-ego-yazykovye-kharakteristiki>;

Токарева И. И. Функциональная структура газетного текста. Лингвистические единицы разных уровней в языке и речи. Краснодар, 1988; Чернышова Т.В. Современный публицистический дискурс (коммуникативно-стилистический аспект). Учебное пособие.–Барнаул.: Изд-во Алтайского гос.ун-та, 2002. <https://studfile.net/preview/3302291>; Костикова О.Ф. Лингвостилистическая специфика русской публицистики начала XXI века: Автореф. дисс... канд. филол. наук, 2008. file:///C:/Users/Irina/Downloads/autoref-lingvostilisticheskaya-spetsifika-russkoi-publitsistiki-nachala-xxi-veka.pdf;

² Карасик В. И. Лингвистика текста и анализ дискурса. – Архангельск – Волгоград, 1994. – 34 с.

³ Переверзев Е. В., Кожемякин Е. А. Политический дискурс: многопараметральная модель // Вестник ВГУ, серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2008, № 2. <https://core.ac.uk/download/pdf/287914719.pdf>

⁴ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 2002. – 264 с.

⁵ Солганик Г.Я. О структуре и важнейших параметрах публицистической речи (языка СМИ) // Язык современной публицистики. Сборник статей. – М., 2005; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

⁶ Садыхова А. А. Арабская публицистика в Западной Европе: эволюция и влияние на этноконфессиональные отношения: Диссертация доктора филологических наук. – Санкт-Петербург, 2010. <http://www.dslib.net/zhurnalistika/arabskaja-publicistika-v-zapadnoj-evrope-jevoljucija-i-vlijanie-na.html>; Магомедов М.И., Магомедова П.М. Лингвистические особенности текстов публицистического стиля арабского языка. Арабистика Евразии, № 2, октябрь, 2018. Eurasian Arabic Studies, № 2, October, 2018. <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvisticheskie-osobennosti-tekstov-publitsisticheskogo-stilya-arabskogo-yazyka>.

e'tiborga loyiqdir⁷. Tilshunoslikda frazeologizmlar tarkibidagi frazeologik birliklarning turli darajadagi idiomatikligiga asoslanib, eng mashhur va keng tarqalgan tasnifini taklif qilgan V.V. Vinogradovning asarlari alohida ahamiyatga ega⁸. Arab tilidagi frazeologizmlarning semantik tasnifi haqida so'z yuritilganda, V.V. Vinogradov tomonidan taklif qilingan frazeologik birliklarning tasnifini ham alohida ko'rsatib o'tish lozim. Qolaversa, ushbu sohaning tadqiq etilishida Z.S. Gataullina, R.A. Bekirov va A.M. Baxilarning ilmiy izlanishlari katta yordam beradi⁹.

Tadqiq qilinayotgan sohada bir qator muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa ham, ilmiy tadqiqotning zamonaviy konsepsiyalari va filologiya fanining zamonaviy darajasini hisobga olgan holda frazeologik birliklarning gazeta diskursida berilishi muammolariga, xususan, siyosiy frazeologik birliklarning rus va arab gazeta diskursidagi tarjima ekvivalentligi masalasiga yangicha yondashuv zarurati vujudga keldi.

Tadqiqotning maqsadi siyosiy frazeologik birliklarning rus va arab gazeta diskursida tarjima ekvivalentligini, shuningdek, rus va arab tilidagi gazeta siyosiy diskursidagi ekvivalent frazeologik birliklarning faollik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

siyosiy frazeologizmlarning qiyosiy lingvomadaniy tahlili asosida rus va arab tillaridagi siyosiy frazeologik birliklarning semantikasi va tuzilishidagi umumiylik va madaniy-milliylikni ochib berish;

adresatlarda dunyoning muayyan bir qismi xususida tasavvur shakllantirishga qaratilgan hamda arab va rus tillarining hozirgi holatini aks etuvchi siyosiy gazeta diskursi xususiyatlarini aniqlash;

lisoniy shaxsiyatning alohida turi hisoblangan muallif va tarjimonning lisoniy shaxsiyati haqida to'liq tasavvur berish;

rus va arab tilshunosligida siyosiy frazeologik birliklar tasnifining asosiy turlarini ko'rib chiqish hamda rus va arab gazeta diskursidagi ekvivalent siyosiy frazeologik birliklarning xususiyatlarini tahlil qilish;

rus va arab tilidagi gazeta diskursida baynalmilal (internasional) frazeologik birliklarning xususiyatlarini belgilash.

Tadqiqotning obykti sifatida rus va arab tilidagi gazetalarda uchraydigan siyosiy frazeologik birliklar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Rossiya Federatsiyasida nashr etiladigan rus tilidagi "Новая газета", "Российская газета", "Газета.ru" gazetolari, Saudiya Arabistonining

⁷Финкельберг Н.Д. Арабский язык. Теория и технология перевода. – М., 2010. file:///C:/Users/Irina/Downloads/43912_3f2366ec4b3c654a4840498b24b65048.pdf

⁸ Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 255 с.

⁹ Гатауллина З.С. Классификация фразеологических единиц в арабском языке. Студенческий: электрон. научн. журн. 2018, № 24(44). Кафедра филологии и страноведения ЧУВО «Российский исламский институт», лингвистика. – Казань, 2018. <https://sibac.info/journal/student/44/126708>; Бекиров Р.А. Стилистические ресурсы книжных и разговорно-бытовых фразеологизмов современного арабского языка // Ученые записки Таврического национального университета им. В. И. Вернадского. Серия «Филология. Социальные коммуникации». Том 25 (64), № 3, ч. 1, 2012. – С. 285-289 file:///C:/Users/Irina/Downloads/stilisticheskie-resurs-knijn-h-i-razgovorno-b-tov-h-frazeologizmov-sovremennogo-arabskogo-yaz-ka.pdf; Бахи А.М. Политическая фразеология арабского языка // Ученые записки Таврического национального университета имени В.И. Вернадского Серия «Филология. Социальные коммуникации». Том 26 (65), № 2. 2013. – С. 183-188. УДК 811.411.21'373.7:32 http://sn-philol.cfuv.ru/wp-content/uploads/2017/01/029_bah.pdf.

“Al-Yaum”, “Ar-Riyod”, “Al-Vatan”, “Sabq” muntazam nashrlari, shuningdek, Misrning eng yirik gazetasi “Al-Ahram” misolida ko‘rib chiqilgan siyosiy frazeologizmlarning tarjima ekvivalentligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash va chog‘ishtirish kabi tahlil usullari, shuningdek, komponent tahlildan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

rus va arab tillaridagi siyosiy frazeologizmlarning tuzilishi va semantikasiga oid universal, milliy-madaniy hamda ularning til diskursidagi faollik xususiyatlari aniqlangan;

gazeta siyosiy diskursining o‘ziga xos xususiyati arab va rus tillarida so‘zlashuvchilarning mentaliteti, tarixi va madaniyati prizmasi orqali ko‘rilgan rus va arab tillarining lisoniy manzarasini shakllantiruvchi vosita ekani isbotlangan;

rus va arab tillaridagi gazeta diskursida qo‘llangan xalqaro frazeologik birliklarning tarjima ekvivalentligiga xos xususiyati aniqlanib, muayyan ijtimoiy-siyosiy doiralar vakili bo‘lgan muallif va tarjimonning lisoniy shaxsiyati haqida bayon qiluvchi tasavvur dalillangan;

rus va arab tilshunosligida siyosiy frazeologizmlarni tasniflash tiplari asosida rus va arab gazetalari diskursidagi ekvivalent siyosiy frazeologik birliklarning sintetik va analitik turlari mavjudligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arab va rus lingvomadaniyatlarining madaniy va tarixiy salohiyatidagi farqlar, rus va arab gazeta siyosiy diskursining lisoniy, tarkibiy-mazmunli xususiyatlari ochib berilgan;

siyosiy frazeologik birliklarning qiyosiy lingvomadaniy tahlili asosida rus va arab tillaridagi siyosiy frazeologik birliklarning semantikasi va tuzilishidagi universal va madaniy-milliy jihatlar aniqlangan;

lisoniy shaxsiyatning alohida turi sifatida muallif va tarjimonning lisoniy shaxsiyati haqida to‘liq tasavvur berilgan;

rus va arab gazeta diskursidagi ekvivalent frazeologik birliklarning xususiyatlarini tahlil qilish asosida siyosiy frazeologik birliklarning turlari tasniflari belgilangan; rus va arab tilidagi gazeta diskursida baynalmilal frazeologik birliklarning o‘ziga xosligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq qilinayotgan muammo bo‘yicha rus va arab olimlarining asosiy tushunchalarini har tomonlama o‘rganilgani, xulosa va amaliy tavsiyalar yetarli miqdordagi to‘plangan va tahlil qilingan materiallar, shuningdek, ishning maqsadi va belgilangan vazifalarga mos keladigan zamonaviy tadqiqot usullari, tadqiqot til nazariyasi, matn nazariyasi, ikkilamchi matn nazariyasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlarini qamrab olgan fanlararo kontekstda olib borilgani hamda nazariy umumlashtirishlar yetarli ilmiy asos bilan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati har xil tuzilmaga ega rus va arab tillaridagi siyosiy frazeologik birliklarni har tomonlama qiyosiy tahlil qilishdan va siyosiy gazeta diskursining paydo

bo'lishi, tuzilishi va faol bo'lishidagi pragmatik frazeologik birliklarning rolini asoslashdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularni siyosiy muloqot sohasida, xususan, ijtimoiy-siyosiy ommaviy axborot matnlarini yaratish va o'rganish, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining turli bosqichlarida lug'at va frazeologiya, tarjimashunoslik, lingvomadaniyat, madaniyatlararo muloqot nazariyasi hamda chet tillarini o'qitish va tarjima amaliyotida foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rus va arab gazeta diskursida siyosiy frazeologizmlarning tarjima ekvivalentligi muammosini tadqiq qilish yuzasidan olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida quyidagilarga erishildi:

rus va arab tillaridagi siyosiy frazeologizmlarning tuzilishi va semantikasiga oid universal, milliy-madaniy, shuningdek, ularning til diskursidagi faollik xususiyatlariga oid ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekistondagi rus diasporasining og'zaki nutqida ishlatiladigan frazeologik birliklar qo'llangan (O'zbekistondagi Rus madaniyat markazining 2021 yilning 1 apreldagi 02-51-son ma'lumotnomasi). Natijada rus tilshunosligidagi siyosiy frazeologik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari aniqlandi va asoslandi, bu o'z navbatida, ularni rus gazetalar matnlarida va arab tiliga tarjima qilishda qo'llash doirasini kengaytirish imkonini bergan;

gazeta siyosiy diskursining o'ziga xos xususiyati bo'lgan arab va rus tillarida so'zlashuvchilarning mentaliteti, tarixi va madaniyati prizmasi orqali ko'rilgan rus va arab tillarining lisoniy manzarasini shakllantiruvchi vositalari tahlilidan olingan amaliy natijalari Saudiya Arabistoni Podshohligining Nur-Sulton (Qozog'iston Respublikasi) dagi elchixonasi tarjima bo'limining amaliy faoliyatida qo'llanilgan (Saudiya Arabistoni Podshohligining Qozog'iston Respublikasidagi elchixonasining ma'lumotnomasi). Natijada, gazeta siyosiy matnlarini rus tilidan arabchaga va aksincha tarjima qilishda chuqur tushunishga imkon beradigan bunday ilmiy izlanishlar zarurligi qayd etildi. Bundan tashqari, tadqiqotda aniqlangan rus tilidagi publisistik matnlarning xususiyatlari, lakunalar va lingvomadaniy interferensiya gazeta matnlarini arab tiliga tarjima qilishda xatoliklarning oldini olishga yordam bergan;

rus va arab tilshunosligida siyosiy frazeologizmlarni tasniflash tiplari asosida rus va arab gazetalar diskursidagi ekvivalent siyosiy frazeologik birliklarning sintetik va analitik turlari mavjudligiga doir tadqiqot materiallari va amaliy natijalaridan Saudiya Arabistoni Podshohligining Tbilisi (Gruziya Respublikasi) dagi elchixonasi tarjima bo'limining amaliy faoliyatida qo'llangan (Saudiya Arabistoni Podshohligining Gruziya Respublikasidagi elchixonasining ma'lumotnomasi). Bu elchixona xodimlariga ommaviy axborot matnlarini yaratishda, shuningdek, rus tilidan arab tiliga va aksincha tarjima qilishda amaliy ko'mak sifatida xizmat qilgan;

rus va arab tillaridagi gazeta diskursida qo'llangan xalqaro frazeologik birliklarning tarjima ekvivalentligiga oid tadqiqot natijalaridan Saudiya Arabistoni Podshohligi Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi tarjima bo'limining amaliy faoliyatida qo'llanib kelinmoqda (Saudiya Arabistoni Podshohligi Tashqi ishlar vazirligining ma'lumotnomasi). Mazkur tadqiqot natijalaridan jurnalistika hamda matnlarni tarjima qilishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika anjumanlarida ma'ruza shaklida bayon qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan yuqori impakt faktorli ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 3 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 122 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad hamda vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Siyosiy gazeta diskursining tarkibiy va til xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobi uch qismdan iborat bo'lib, tilning hozirgi holatini aks ettiruvchi va ijtimoiy-madaniy o'zaro ta'sirning muhim tarkibiy qismi sifatida gazeta diskursi, rus va arab gazeta diskursi tizimini tashkil etuvchi umumiy tizimli va o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, rus va arab siyosiy gazeta diskursining farqli jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Rus va arab tilidagi siyosiy matbuot tilini o'rganishda uning siyosiy diskurs kabi keng tushunchaning bir qismi ekanini hisobga olish kerak. Bir qancha olimlar fikriga ergashgan holda, diskurs va matn tushunchalarini bir-biridan farq qilishini, diskurs – bu so'zlashuvga, haqiqiy nutq faoliyatiga, matn esa til tizimiga yoki formal lingvistik bilimlarga, lingvistik kompetensiyaga bog'liq tushunchaligini kayd qilish lozim. Tadqiqotda tahlilga tortilgan Rossiya Federatsiyasida chop etiladigan rus tilidagi gazetalar hamda Saudiya Arabistoni va Misrda chop etiladigan arab tilidagi gazetalarning ijtimoiy-madaniy konteksti ommaviy auditoriyaga yo'naltirilgan bo'lib, milliy-madaniy va dialogiklik (ochiqlik, qabul qiluvchiga qaratilgan muloqot) xususiyatlari bilan ajralib turadi, chunki OAVdagi siyosiy diskursning resipienti ma'lum bir madaniyatga tegishlidir.

Til nuqtai nazaridan rus va arab siyosiy diskursi bir xil emasligi va ko'p darajali xarakteri bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, siyosiy matbuot rasmiy uslub va kundalik tilning xususiyatlarini o'z ichiga oladi, natijada rus va arab maqolalarida leksik birliklarning ekspressivlik tusi oshadi.

Rus va arab tilidagi siyosiy matbuot siyosiy diskursning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'z navbatida bosma ommaviy axborot vositalarining chegaralaridan ancha kengroq hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan rus gazetalari o'rganish shuni ko'rsatdiki, rus gazeta diskursining tili "neologizatsiya" xususiyati bilan ajralib turadi. Rus tilining so'z boyligini faol ravishda to'ldirib borayotgan yangi so'zlar va ma'nolar, rus lingvomadaniy hamjamiyatiga oid dunyoning zamonaviy lisoniy manzarasini tashkil qiladi.

"Tilning jadal demokratiyalashtirilishi pastlashgan, jargon va ko'pincha axloqsiz so'zlarning kundalik maishiy nutq chegarasidan chiqib ketishiga olib keldi va ta'sirchanlik (ekspressiya)ni ifoda qilishni talab qiladigan gazeta janrlari to'ldirdi ... norasmiy, shaxsiy va rasmiy, ommaviy muloqot o'rtasidagi chegaraning buzilishi ro'y beradi"¹⁰.

Arab ommaviy axborot vositalariga kelsak, ularda "... ko'p jihatdan badiiy uslubning ta'sirini va muallif individualligining namoyon bo'lishini sezish mumkin, bu, birinchi navbatda, arab mamlakatlaridagi publisistika keyinroq paydo bo'lgani va bu janrning jurnalistlar emas, yozuvchilar tomonidan tatbiq qiligani bilan bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, arab gazetalari va bosma nashrlarida bu janr ham uslubiy, ham umumiy lingvistik nuqtai nazardan o'ziga xos xususiyatlarga ega"¹¹.

Shu bilan birga yana shunday fikr borki, "... arab publisistikasi, arabshunoslikda keng tarqalgan fikrga ko'ra, XIX asrning boshlarida emas, balki islomgacha bo'lgan davrda shakllana boshlagan. Uzoq vaqt davomida (XIX asr boshlariga qadar) arab publisistikasi o'rta asr adabiyotining ajralmas qismi bo'lib, uning asosiy oqimida rivojlandi; o'rta asr shoirlari, yozuvchilari va olimlarining publisistik qarashlarini ko'plab asarlarda uchratish mumkin edi. Umuman arab adabiyotining o'ziga xos xususiyati (va ayniqsa, o'rta asrlarning boshlarida) uning aniq siyosiy yo'nalishi mavjudligidir, chunki arab Sharqida adabiyot har doim etno-konfessional munosabatlar sharoitida madaniy birlashuv (konsolidatsiya)ning alohida ijtimoiy funksiyasini bajargan va bajarishni davom etmoqda"¹².

Biroq, M.A. Tahsinning fikriga ko'ra, "...arab matbuoti nafaqat texnologiya sohasida, balki mafkura sohasida ham katta yutuqlarga erishdi, jahon siyosiy jarayonlariga qo'shildi va Yaqin Sharq mintaqasini demokratlashtirish omiliga aylandi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi va takomillashuvi bilan auditoriyaning yoshi, ijtimoiy tabaqasi va mafkurasi nuqtai nazardan bo'linish yuz berdi"¹³.

Arab tilidagi zamonaviy gazeta diskursining asosiy leksik va uslubiy xususiyatlarini ijtimoiy-madaniy voqelikka asoslangan uslubiy vositalardan foydalanish, matnlarning hissiy (emotsional) jihatlarini ifodalaydigan yoyiq metaforalar va diniy frazeologik birliklarning yuqori chastotasini kuzatish mumkin.

Arab gazeta diskursida har xil til uslublarining elementlari, jumladan, og'zaki va xalq tili ishlatilib, bu o'quvchiga hissiy ta'sir o'tkazish zarurati bilan bog'liq. Shu bilan

¹⁰ Костикова О.Ф. Лингвостилистическая специфика русской публицистики начала XXI века: Автореф. дисс... канд. фил. наук, 2008. file:///C:/Users/Irina/Downloads/autoref-lingvostilisticheskava-spetsifika-russkoi-publitsistiki-nachala-xxi-veka.pdf.

¹¹ Магомедов М.И., Магомедова П.М. Лингвистические особенности текстов публицистического стиля арабского языка // Арабистика Евразии, № 2, октябрь, 2018. Eurasian Arabic Studies, № 2, October, 2018. – С. 16.

¹² Садыхова А.А. Арабская публицистика в Западной Европе: эволюция и влияние на этноконфессиональные отношения: Дисс... д-ра филол. наук. – Санкт-Петербург, 2010. – С. 2. <http://www.dslib.net/zhurnalistika/arabskaja-publicistika-v-zapadnojevrope-jevoljucija-i-vlijanie-na.html>.

¹³ Тахсин Мохаммад Анис Шарадга. Анализ современных средств массовой информации Иордании // Вестник РУДН, серия <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-sovremennyh-sredstv-massovoy-informatsii-iordanii>.

birga, arab gazeta diskursining katta qatlamini o'zlashtirilgan leksika tashkil qiladi. Rus va arab tillarida chiqadigan gazeta diskursining tili milliy tillarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi dinamik jarayonlarni aks ettiradi. Olib borilgan tahlillarga ko'ra, rus va arab gazeta diskursi tiliga demokratlashtirish va jonli, sodda nutq xosdir.

Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning ifodasi sifatida rus va arab siyosiy diskursi qabul qiluvchi (adresat)larda dunyo lisoniy manzarasining ma'lum bir qismini shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, siyosiy diskursni qabul qiluvchilarda ijtimoiy qadriyatlar aksi hamda rus va arab hamjamiyatiga xos bo'lgan dunyo manzarasini shakllantirish vositasi, deb hisoblash mumkin. Shuning uchun ham siyosiy diskursning kommunikativ maqsadi gazeta nashri orqali pragmatik funksiyani amalga oshirishdir. Demak, siyosiy diskurs ham rus, ham arab tilida aniq ijtimoiy va pragmatik xarakterga ega.

Rus va arab gazeta siyosiy diskursi siyosiy voqealarni yoritishda lisoniy ifoda vositalarini tanlash orqali yuqori dialogiklik bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda, siyosiy diskursda ommaviy axborot vositalari faoliyatining hozirgi bosqichida dinamik lisoniy hodisa, deb hisoblanadigan muallifning pozitsiyasi ham yetarlicha namoyon bo'ladi. Gazetaning siyosiy diskursiga xos bo'lgan neytral so'zlarning mafkuraviy tus olishi ma'lum hissiy ma'noga ega bo'lgan leksik birlikning ijtimoiy-baholovchi xususiyatidan dalolat beradi.

Rus va arab gazeta siyosiy diskursining tili nafaqat yuqori dialogikligi, balki ekspressivligi va hissiyligi bilan ham ajralib turadi. Lisoniy vositalardan foydalanish esa muallif pozitsiyasini samarali ifodalash usuli sifatida qaraladi. Ekspressivlik mualliflarning frazeologik birliklar kabi til vositalaridan foydalanishida o'z ifodasini topadi. O'z navbatida hissiy jihat (emotsionallik) muallifning voqelikka va tasvirlangan vaziyat yoki hodisaga bo'lgan munosabatini qayta yetkazishdir.

Binobarin, hozirgi bosqichda rus va arab tillaridagi gazeta siyosiy diskursi maxsus konseptual shakllar sifatida ma'lum bir millat haqidagi muayyan fikrlarni o'z ichiga olgan milliy stereotiplarning shakllanishi va ongda mustahkamlanishida muhim rol o'ynaydi. Siyosiy nutq mualliflari tomonidan qo'llaniladigan etnik stereotiplar rus va arab tilida so'zlashuvchi xalqlar milliy ongining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, shuningdek, o'quvchilar ongidagi dunyo manzarasiga siyosiy diskursning pragmatik ta'sirini kuchaytirishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Gazeta diskursidagi siyosiy frazeologizmlarning tarjima ekvivalentligi xususiyatlari”** nomli ikkinchi bobi uch qismdan iborat bo'lib, lingvistik va ekstralingvistik omillarni hisobga oladigan va rus tilidan arab tiliga tarjima qilishda qo'llaniladigan ekvivalentlik darajalari nazariyasi, gazeta diskursini turli jihatlardan o'rganish imkonini beradigan muallifning lisoniy shaxsiyatiga xos xususiyatlari hamda tarjimonning lisoniy shaxsiyatining gazeta diskursidagi roli kabi masalalarni o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqotda V.N. Komisarov¹⁴ tomonidan taklif qilingan ekvivalentlik darajalari nazariyasi o'rganilib, unga ko'ra tarjima jarayonida asl va tarjimaning tegishli darajalari o'rtasida ekvivalentlik munosabatlari o'rnatilishi ta'kidlanadi.

¹⁴ Комиссаров В.Н. Слово о переводе. – М, 1973.

K. Rays gazeta matnini mazmun (kontent)ga yo‘naltirilgan matnlar, deb tasniflaydi va “... mazmunga yo‘naltirilgan matn tarjima paytida aynan mazmun (kontent) darajasida invariantlikni kafolatlashni talab qiladi”¹⁵. Demak, tarjima tiliga yo‘naltirilish (e‘tibor berish) bu turdagi matnlarning baholanishidagi asosiy mezon hisoblanadi. K. Raysning fikriga ko‘ra, “...bu yerda tarjima tili ustunlik qiladi, chunki axborot mazmuni eng muhimdir va uni o‘quvchi unga odatiy bo‘lgan til shaklida qabul qilishi kerak”¹⁶. Bu turdagi ishlarda tarjima madaniyatlararo muloqot aktiga tenglashtirilishi ham bejiz emas.

Rus va arab tilidagi diskursda matnlarga yorqin hissiy tus beradigan frazeologik birliklar keng qo‘llanadi. Biroq, frazeologik birliklarni tarjima qilish va uzatish jarayonida tarjimonlar muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi, shuning uchun ba’zi hollarda tarjima va asl matnlarni har doim ham kommunikativ jihatdan ekvivalent, deb hisoblab bo‘lmaydi. Dissertatsiyada lisoniy muloqotning asosi va tarjimaning zaruriy sharti bo‘lgan fon bilimlarining muhim o‘rni qayd etiladi, chunki kommunikantlar, xususan, rus va arab tillarida so‘zlashuvchilar turli lingvomadaniy jamiyatlarga mansubdir. Chet tilidagi diskurs muallifning g‘oyasini tushunib, uni to‘g‘ri yetkazish uchun tarjimonga fon bilimlar zarur.

Ishda frazeologik ekvivalent tarjima qilinayotgan birlikka teng bo‘lgan frazeologik birlik sifatida tushuniladi. Tarjima qilingan tilda ekvivalent frazeologik birlik mavjud bo‘lsa ham, tarjimon boshqa ma‘noni ifodalash vositalariga murojaat qilishi kerak, chunki frazeologik birlik kontekstga mos kelmasligi mumkin. Ko‘p holatlarda rus va arab tillarining o‘xshash ifodalari har xil baho konnotatsiyasiga ega bo‘ladi.

Dissertatsiyadagi tahlillarga ko‘ra, har xil tizimli tillarning frazeologik ekvivalentlari har doim ham bir-biriga to‘g‘ri kelavermaydi. Taqqoslanayotgan tillarda ularning o‘xshash yoki teng ifodalari mavjud bo‘lmasligi mumkin, ular ko‘pincha milliy urf-odatlar, kundalik hayot realiyalari, an‘ana-udumlar, afsonalar va boshqa madaniy-tarixiy qadriyatlarga xos bo‘yoqlar bilan singdirilgan bo‘ladi.

“Lisoniy shaxsiyat” termini ilk bor 1930 yilda V.V. Vinogradov tomonidan qo‘llanildi¹⁷. Tadqiqotda biz Yu.N. Karaulov taklif qilgan lisoniy shaxs modeliga tayanamiz. U lisoniy shaxsga “lisoniy-tarkibiy murakkabligi darajasi, voqelikni aks ettirilishi aniqligi va chuqurligi, muayyan maqsadga yo‘naltirilganligi bilan farqlanadigan nutq asarlari (matnlari)ning yaratilishi va idrokini belgilaydigan inson qobiliyati va xususiyatlari majmui” deya ta’rif beradi¹⁸.

Mazkur ishda muallifning lisoniy shaxsiyati lisoniy shaxsiyatning alohida turi sifatida ko‘rib chiqiladi. Siyosiy matnlarni yaratish uchun muallifga ijtimoiy voqelikni yetarli darajada idrok etish va materialni to‘g‘ri rasmiylashtirish kerak. G.Ya. Solganikning ta’kidlashicha, “...voqelikka munosabat muallif toifasining ko‘p qirrali

¹⁵ Райс К. Классификация текстов и методы перевода // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М., 1978. – С. 19. <http://www.philologv.ru/linguistics1/reiss-78.htm>

¹⁶ Райс К. Ўша ерда.

¹⁷ Виноградов В.В. О художественной прозе. – М.-Л., 1930.

¹⁸ Караулов Ю.Н.. Русский язык и языковая личность. – М., 1987. – С. 104.

tomonlarini, fazilatlarini nazarda tutadi, ular orasida muallif – ijtimoiy shaxs va muallif – xususiy shaxs dixotomiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi”¹⁹.

Tarjimonning lisoniy shaxsiyati – tarjima paytida asl (manba) matnining o‘zgarishi (transformatsiya)ni tahlil qilish orqali aniqlanishi mumkin bo‘lgan lisoniy shaxsning alohida turidir. Malakali tarjimonning lisoniy shaxsiyatini o‘rganishning dolzarbligi xalqaro, millatlararo, shaxslararo va tillararo aloqalarning kengayishi, shuningdek, tarjima va madaniyatlararo muloqot nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish zarurati bilan bog‘liq.

Dissertatsiyada tarjimonning lisoniy shaxsiyati qabul qiluvchi (adresat) tomonidan tushunilgan gazeta diskursining tili asosida o‘rganiladi. Ya’ni zamonaviy rus tilining tizim-tarkibiy manzarasi malakali tarjimon lisoniy shaxsiyatining nutq faoliyati orqali uzatiladi. Shuningdek, lisoniy shaxsiyat tilning tarkibiy resurslaridan foydalanib, uning mukammalligi matn shakldagi xabarning mazmunini yetkazish uchun til birliklarini to‘g‘ri tanlashi bilan bog‘liqligini ham hisobga oladi.

Ma’lumki, tarjima matni aslyat matniga teng kelmaydi, chunki asl asar tarjimon dunyoqarashi prizmasidan o‘tganda, u tarjima yaratish jarayonining turli bosqichlarida o‘zgarishlarga uchraydi. Arab tili tarjimasining xususiy nazariyasi va texnologiyasi bo‘yicha birinchi fundamental asar muallifi N.D. Finkelbergning yozishicha, “...tarjimon o‘z ongida ikkita shaxsiy tezaurus – ruscha va arabchani shakllantirishi yetarli emas. Tarjima jarayonida bu ikki tizim doimo o‘zaro ta’sir qiladi, natijada aralash tezaurus shakllanadi. Aralash tezaurus – bu har xil tilli tushunchalar va ularni amalga oshiradigan so‘zlar kesishgan proeksiyalar shaklida taqdim etiladigan sun’iy dunyoqarashdir. Bunday proeksiyalar ob’ektiv xarakterga ega bo‘lishi uchun konseptual sohalarni ham sub’ekt-konseptual, ham kategorial jihatdan solishtirish foydalidir”²⁰.

Muallif yana shuni ta’kidlaydiki, “...tarjimon o‘zining arabcha tezaurusini tuzishda arabcha tushunchalar tizimining elementi sifatida shakllangan tushunchani ruscha tushuncha tizimining elementi sifatida shakllangan ruscha tushuncha bilan almashtirishga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Nutqda ishlatiladigan materialning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘xshash tushunchalar ham arab va rus tilidagi tezaurusda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular lisoniy tafakkurning milliy xususiyatlari bilan bog‘liq”²¹.

Shunday qilib, so‘nggi yillarda o‘tkazilgan ilmiy izlanishlarda tarjimon ikki madaniyat va til tashuvchisi, lingvistik, pragmatik, madaniy, semiotik, matnlararo, psixologik va huquqiy jihatlarni hisobga olgan holda, ikkilamchi matnlarni yaratadigan maxsus kognitiv tuzilmalarga ega vositachi sifatida o‘rganiladi.

Tarjimonning lisoniy shaxsiyati asl va tarjima qilingan matn o‘rtasida farqlanish (ziddiyat) holatlarida yuzaga keladi; uning tahlil birligini aniqlash uchun tarjima transformatsiyasi xizmat qiladi. Tarjima qilingan matnlarda aks ettirilgan tarjimon diskursi ikkilamchi xarakterga ega. Shuning uchun ham tarjima qilingan matnda tarjimonning lisoniy shaxsiyati alohida individ sifatida kamroq darajada namoyon

¹⁹ Солганик Г.Я. О структуре и важнейших параметрах публицистической речи (языка СМИ) // Язык современной публицистики. Сборник статей. – М., 2005. – С. 15.

²⁰ Финкельберг Н.Д. Арабский язык. Теория и технология перевода. – М., 2010. – С. 180.

²¹ Финкельберг Н.Д. Арабский язык. Теория и технология перевода. – М., 2010. – С. 179.

bo'ladi. Qolaversa, tarjimonni ikki til o'rtasidagi vositachi va madaniyat tashuvchisi sifatida o'rganish madaniyatlararo muloqot jarayonlarini amalga oshirishda lisoniy shaxsiyatning o'rni haqida so'z yuritishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **“Rus va arab gazeta diskursida ekvivalent siyosiy frazeologik birliklarning ishlatilishi xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobi uch qismdan iborat bo'lib, unda rus va arab tilshunosligidagi siyosiy frazeologik birliklar tasnifining asosiy turlari, rus va arab gazeta diskursidagi ekvivalent siyosiy frazeologik birliklar, shuningdek, rus va arab tilidagi gazeta diskursida baynalmilal frazeologik birliklar kabi bir qator masalalarning tahlili o'rin olgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, frazeologiyaning asosiy tushunchalari bilan bog'liq masalalar V.V. Vinogradov asarlarida o'z aksini topgan²². V.V. Vinogradov tomonidan kiritilgan “frazeologik qo'shilmalar (chatishmalar)”, “frazeologik butunliklar” va “frazeologik birikmalar” kabi termin komponentlarining birlashish darajasini ko'rsatadi. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, V.V. Vinogradov tomonidan taklif qilingan frazeologik birliklarning tasnifi arab tilining frazeologik tizimiga ham tegishli.

Qo'llanish sohasi bo'yicha bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan siyosiy frazeologik birliklarni ko'p jihatlar bo'yicha tasniflash mumkin. A.A. Karamovanning tasnifiga ko'ra, siyosiy frazeologiyaga quyidagilar tegishli:

1) an'anaviy ravishda ajratilgan frazeologik birliklar (qo'shilma, butunlik, birikmalar): *политика двойных стандартов* (ikki tomonlama standartlar siyosati), *сильные мира сего* (bu dunyoning kuchlilari), *власть имущие* (hokimiyat egalari), *финансовая пирамида* (moliyaviy piramida), *черный рынок* (qora bozor), *утечка мозгов* (aqlarning oqishi, ya'ni aqli odamlarning chiqib ketishi);

2) turg'unlikka moyil (tez-tez qo'llanadigan) ekspressiv iboralar (odatda vaziyat, muayyan davr, shaxs yoki hodisaga bog'liq): *газовые войны* (gaz urushlari), *кризис* (экономический, финансовый, политический), *инквизиция* (iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy)²³.

Qo'llanish sohasini hisobga olgan holda, A.A. Karamova siyosiy frazeologiyani ikkita asos bo'yicha ajratadi: ijtimoiy-siyosiy lug'at tizimiga va frazeologik belgilash mavzusining tematik mansubligiga ko'ra.

Ijtimoiy-siyosiy lug'at tizimiga tegishli quyidagilar ajratiladi:

1) ingerent (tub) siyosiy frazeologiya: *власть имущие* (hokimiyat egalari), *коридоры власти* (hokimiyat koridorlari), *железный занавес* (temir parda), *предвыборная гонка* (saylov oldi roygasi), *политика двойных стандартов* (ikki tomonlama standartlar siyosati);

2) adgerent (qo'shimcha kiritilgan) siyosiy frazeologiya – siyosiy kontekstga tortilgan umumiy frazeologik birliklar: *держат ухо востро* (sergak, xushyor bo'lmoq); *плести нити заговора* (fitna uyushtirmoq, tarqatmoq) va h.k.²⁴.

Faktik materiallarning tahlili shuni ko'rsatdiki, siyosiy frazeologik birliklarning semantikasi va tuzilishini o'zgartirmasdan ishlatganda, ularning ingerent (tub), umumlisoniy, ekspressiv xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bunday holatda siyosiy

²² Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 255с.

²³ Карамова А. А. Политическая фразеология: определение понятия и типология //Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) № 7 (16), 2015 /Филологические науки. – С. 39. <https://cvberleninka.i'u/article/n/polilicheskava-frazeologiva-opredelenie-ponyatiya-i-tipologiya>

²⁴ Карамова А. А. Ўша манба. – Б. 40.

frazeologik birliklar kontekst komponentlari bilan o'ziga xos, stilistik jihatdan muhim aloqalarga kirishmaydi. Frazeologik birliklarning hissiy mazmuni nutq ifodasi orqali ochiladi, siyosiy frazeologik birliklarning adgerent ifoda etish imkoniyatlari esa, amplifikatsiya, antiteza va boshqa mumkin bo'lgan vositalar yordamida beriladi.

Alohida ta'kidlash kerakki, arab tilidagi frazeologik iboralarning asosiy manbalari quyidagilardir: 1) Qur'oni karim; 2) Payg'ambar (s.a.v.) so'zlari va hatti-harakatlari (hadislar); 3) maqollar; 4) she'rlar; 5) tarixiy voqealar; 6) arab tiliga tarjima orqali kirgan xorijiy iboralar. Matbuotning rivojlanishi arab tili lug'atinining xorijiy so'zlar hisobidan boyitilishiga yordam beradi, chunki o'zlashtirilgan leksika arab tilining siyosiy nutqida keng qatlamni tashkil etadi va tadqiqotda ko'rib chiqilgan arab tilidagi gazetalar bundan yaqqol dalolat beradi.

A.M. Baxining fikriga ko'ra, arab tili siyosiy frazeologiyasi ikki guruhga bo'linadi:

a) frazeologik birliklar – terminlar; b) terminologik xarakterga ega bo'lmagan frazeologik birliklar. Frazeologik birliklar – terminlar mintaqa siyosiy hayotiga oid realiyalarni ifodalaydi. Masalan: *prezidentlik respublikasi* – جمهورية رئاسية. Terminologik xarakterga ega bo'lmagan frazeologik birliklarga kelsak, ular siyosiy kurashning tamoyillari va xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Terminologik bo'lmagan frazeologik birliklar – bu odamlar xotirasida saqlanib qolgan ma'lum bir voqea yoki siyosatchi bilan bog'liq bo'lgan ifodalar, iboralar va iqtiboslar. Masalan: *Muammar Kaddafi*: 25 دار، دار، بيت، بيت، زنقة، زنقة

Gazeta diskursida ishlatiladigan siyosiy frazeologik birliklar murakkab kommunikativ funksiyalarni bajaradi.

Biz tanlagan rus, Saudiya Arabistoni hamda Misrning "Al-Axram" gazetalarini matnlaridan namuna olish usuli bilan tanlangan material asosida quyidagi siyosiy frazeologik birliklarni ajratish mumkin:

1. Metaforali perifraz – keng tarqalgan ma'noga ega majoziy ifoda, masalan, tipa *чёрное золото* (*qora oltin*) الذهب الأسود.

"Xusususan, 1971 yilda arablar birinchi marta jamoaviy bitim quroli sifatida tashkilotdan samarali foydalanishdi va o'zlari uchun katta imtiyozlar olishdi, buning natijasida qora oltin sotishdan tushgan daromadlari sezilarli darajada oshdi".

http://www.gazeta.ru/science/2015/03/25_a_6613061.html.

استأنفت أسواق الذهب الأسود "النفط" العالمية الهبوط أول من أمس، وسجلت عقود خام القياس العالمي مزيج برنت والنفط الأميركي أدنى مستوياتها منذ أبريل 2009.

http://alwatan.com.sa/Economy/News_Detail.aspx?ArticleID=211522&CategoryID=2

2. Gazeta shtampi – ko'pincha jummalarda kesim (predikat) va bog'lanish vazifasini bajaradi, *территориальный спор* (*hududiy nizo*) النزاع الإقليمي kabi:

"Tokio va Pekin o'rtasidagi hududiy nizo".

<http://www.rg.ru/sujet/4715/index.html>

وفي تصريحات للصحفيين عقب لقائهما في مقر وزارة الدفاع، أعلن كلا الوزيرين عن موقف بلديهما بشأن النزاع الإقليمي.

<http://www.alyaum.com/articles/923020/>

²⁵ Бахи А.М. Политическая фразеология арабского языка // Ученые записки Таврического национального университета имени В.И.Вернадского. Серия "Филология. Социальные коммуникации". Том 26 (65), № 2, 2013. - С. 185. http://sn-philol. Cfuv.ru/wp-content/uploads/2017/01/029_bah.pdf

3. Kalkalashgan frazeologizm – boshqa tildan kirib kelgan birikma, masalan, *желтая пресса (sariq matbuot) الصحافة الصفراء*.

“*Muammo Kiselyovda emas, u bilan barchasi tushunarli, balki Gabrelyanovda – yaxshi (sifatli) jurnalistika bilan targ‘ibot emas, balki sariq matbuot raqobat qilmoqda*”.

<http://www.alyaum.com/articles/869609/>

فانا علم يقينا بانكم لن تصلوا علي ؟ تبا لاقلام الصحافة الصفراء تبا لمانشيات العهر تبا لعناوين الاثارة
القدره

4. Qo‘shma tarkibli termin – professional sohada qo‘llanadigan turg‘un birikma (submadaniyatlarini ham o‘z ichiga oladi), hissiy (ekspressiv)dan ko‘ra ko‘proq nominativ qiymatga ega, masalan, *тактический ход (taktik yurish) خطوة تكتيكية*.

“*Vatanning bunga hech qanday aloqasi yo‘q, ularning ta‘sischilar orasida bo‘lishi – bu qandaydir taktik yurish*”.

<http://www.novayagazeta.ru/politics/67767.html>

إلا أنهم رأوا في علاقتهم به خطوة تكتيكية تمكنهم من إسقاط العاصمة والاستيلاء على مؤسسات الدولة
وجيشها

<http://www.alyaum.com/articles/1107952/>

5. Qanotli iboralar – turg‘un birikmalarning cheksiz manbai bo‘lib, uning faol ishlatilishi oldingi matn yoki vaziyatning sintagmatik xususiyatlari bilan belgilanadi, masalan, *политика кнута и пряника (qamchi/tayoq va shirinlik siyosati) سياسة العصا و الجزرة*.

“*Ehtimol, “qamchi va shirinlik siyosati” – ushbu bosqichda eng maqbul yechim*”.

<http://www.rg.ru/2014/02/04/stimul.html>

لكنه دعا واشنطن إلى الكف عن سياسة العصا والجزرة.

<http://www.alyaum.com/articles/774650>

Rus va arab tillaridagi frazeologik manzarani taqqoslash frazeologik sinonimlar orqali ifodalangan voqelik xalqlarning idrok etishi va aks ettirishning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Mazkur bobning “*Rus va arab gazeta diskursida ekvivalent siyosiy frazeologizmlar*”, deb nomlangan ikkinchi qismida Rossiyaning “*Новая газета*”, “*Российская газета*”, “*Газета.ru*”, shuningdek, Saudiya Arabistonining “*Al-yaum*” gazetalarini hamda Misrning “*Al-Ahram*” gazetasidan yalpi tanlab olish usuli bilan eng ko‘p uchraydigan siyosiy frazeologik birliklar tahlil qilindi.

Bir qator tadqiqotchilarning fikriga tayanib, biz arab va rus tillarining frazeologik birliklarini semantik, leksik va stilistik jihatdan mos keladigan to‘liq frazeologik ekvivalentlar, deb hisoblaymiz. Biroq, strukturaviy va grammatik xususiyatlar bir-biriga mos kelsa ham, bir tilga xos bo‘lgan va boshqasiga xos bo‘lmagan tipologik belgilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Funktsional va uslubiy xususiyatlari bo‘yicha to‘liq ekvivalentlar uslublararo yoki kitobiy bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, arab tilining stilistik jihatdan pasaytirilgan (adabiy me’yorlardan tubdan farq qiladigan) frazeologik birliklari uchun to‘liq ekvivalentlik xos emas.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, gazeta matnlarida implisit baho berish uchun o‘quvchi ongida aniq tasvirni, xususan, metafora va evfemizmni yaratishga imkon beradigan

